

Termiz shahrida O'zbekiston-Afg'oniston Biznes-forumi bo'lib o'tmoqda.



Termiz shahrida O'zbekiston-Afg'oniston Biznes-forumi bo'lib o'tmoqda.

Termiz shahridagi "San'at saroyi" hududidagi so'limgan bog'da O'zbekiston va Afg'oniston ishbilarmonlari ishtirokida biznes-forum, hududlar va tarmoqlararo sanoat yarmarkasi hamda kooperatsiya birjasi, shuningdek, "Made in Uzbekistan" milliy mahsulotlar ko'rgazmasi bo'lib o'tmoqda.

Forumga tadbirkorlar bilan birga Afg'oniston Islom Respublikasining Prezidenti Devoni rahbari Muhammad Shokir Korgar, Afg'oniston Savdo-sanoat palatalari federatsiyasi raisi Ismoil G'azanfar, Balx viloyati voliysi Muhammad Farhod Azimiy singari martabali mehmonlar ham tashrif buyurishgan.

Biznes-forum doirasida tashkil etilayotgan hududlar va tarmoqlararo sanoat yarmarkasi, kooperatsiya birjasi hamda "Made in Uzbekistan" milliy mahsulotlar ko'rgazmasida mamlakatimiz viloyatlari va Surxondaryoda ishlab chiqarilayotgan

qurilish mollari, elektrotexnika, charm, tekstil sanoati, qishloq xo'jaligi, avtotransport vositalari va boshqa mahsulotlar, milliy hunarmandlik buyumlari keng namoyish etilmoqda.

Tadbirda, davlatimiz ishbilarmonlari qo'shni Afg'oniston bilan ikki tomonlama foydali **shartnomalar imzolashi** kutilmoqda.

Image not found or type unknown

Image not found or type unknown